

---

## TEZ KUNLARDA YANA 300 TA XONADON ICHIMLIK SUVI BILAN TA'MINLANADI

Prezidentimizning "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 408-sonli Qarori doirasida Toshloq tumanida aholini ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash borasida bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda.

Ayni kunlarda "Jarqishloq" MFYda 10 km toza ichimlik suvi tarmog'i tortish hamda 2 ta suv inshootini qurish ishlari olib borilmoqda.

Qarorga ko'ra, qurilish ishlariga 4 milliard 62 million so'm mablag' sarflanishi ko'zda tutilgan. Ushbu ishlar yakunlanishi bilan mahalladagi 300 ta xonadon toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi.

2023-04-06 17:06:50